



TA'LIMGA IXTISOSLASHGAN JURNALISTLARNI YETISHTIRISHDA “MAHORAT MAKtablARI”NING O'RNI

Ahmadjonov Muhammadjon Abdurasul o'g'li
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi
Tashkiliy ishlar bo'limi yetakchi mutaxassisi

Annotasiya. Mazkur maqolada, asosan ta'limga katta-kichik masalalar, ta'limga ixtisoslashgan jurnalistlarni yetishtirishda mahorat maktablari qanchalik o'ringa egaligi ko'rib chiqilgan. Ta'kidlash joizki, yirik muammo ko'tarilgan maqolalar bilan bir qatorda amaliyotchi o'qituvchilarning shaxsiy metodik tajribasidan o'rinni olgan ta'lim-tarbiyaning o'z o'rni, o'quvchining ijodiy imkoniyatlarini rivojlanadirigan, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar, tarbiyaviy soatlar, to'garak ishlari va boshqa sinfdan tashqari mashg'ulotlar haqida alohida fikrlar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, axborot, matbuot, mahorat maktablari, to'garak, texnologiyalar.

Abstract. This article deals primarily with major-minor issues in education, how much space skill schools have in the cultivation of journalists specializing in education. It should be noted that along with the articles that raised a major problem, special thoughts were brought about the role of Education, which took place from the personal methodological experience of practicing teachers, classes organized on the basis of modern pedagogical and information and communication technologies, educational hours, circle work and other extracurricular activities that develop the creative capabilities of the student.

Key words: Education, information, press, skill schools, circle, technology.

Maktab yoshidagi bolalar o'z oldiga katta maqsadlarni qo'yishi va unga turli olimpiada va bellashuvlarda ishtirok etishlari orqali erishishlari zarur. Bellashuvlar natijalari esa davriy matbuot orqali e'lon qilib boriladi. Shuningdek, taniqli shaxslar hayotidan ibratli misollar keltirish ham bolalarimizda motivatsiyani, o'z ustida ishslashga rag'batni uyg'otishi shubhasizdir. Yosh bo'lishiga qaramay bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritgan bolakaylar faoliyatini keng targ'ib qilish natijasida maqsadga erishish uchun yoshlikdan boshlab harakat qilish kerakligini uqtirib borish faqat foyda bo'ladi. Yosh va iqtidorli kadrlarni jurnalistikaga jalgan qilishda aynan mahorat maktablarining ahamiyati katta.

Jurnalistikaga endi qadam qo'yayotgan abituriyentlar uchun oliy o'quv yurtlarida ham mahorat maktablari tashkil etilgan tajribalar ham mavjud. Moskva davlat xalqaro aloqalar instituti (MGIMO)da yosh jurnalistlar maktabi 10 yildan buyon faoliyat yuritadi. 16-18 yoshli qiziquvchilar uchun darslar haftada bir marotaba, juma kuni 17:00 dan 19:00 gacha davom etadi. Unda o'quvchilar universitetning an'analari, kasblari bilan tanishib, ijodiy imtihonga tayyorgarlik ko'rishadi. Universitetning xalqaro jurnalistika fakulteti o'qituvchilari tomonidan darslar olib borilib, mashhur jurnalistlardan ham mahorat darslarini olishadi. Ularning ko'pchiligi ushbu universitetning talabasiga aylanadi¹.

¹ <https://premiagi.ru/initiative/733>



Shuningdek, ta’lim-tarbiyaga ixtisoslashgan nashrlar qoshida faoliyat yuritayotgan mahorat maktablari ham talaygina. Rossiyaning «Uchitelskaya gazeta»si bosh muharriri Petr Polojevesning shaxsan o‘zi mahorat darslarini tashkil etadi. Ana shunday mahorat darslaridan biri -«Pedagogik jurnalistika: o‘rgatishmi yoki xabardor qilish?» mavzusida bo‘lib o‘tgan. Mutaxassis darslarini 4 asosiy mavzuga ajratdi. Birinchisi, so‘rovnama, ikkinchisi, sayt faoliyati, uchinchisi, kishilarning jonli fikri, to‘rtinchisi, tahririyat siyosati va rasmiy pozisiyasi. Mutaxassisning fikricha, pedagogik jurnalistikaning vazifalaridan biri bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar haqida auditoriyani xabardor qilishdir².

Bosma OAVda texnika, rang-barang kadrlar, baland ovozlar hamda montaj yordamida «sayqallangan» tasvirlardan foydalanish imkoniyati yo‘q. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining ruhiyatga ta’siri haqida gapirar ekan, Richard Xarris shunday deydi: «Televizor yoki radioni yolg‘iz hamda jamoaviy tarzda tomosha qilish, eshitish mumkin. Gazeta va jurnallar mutolaasi esa, aksariyat hollarda individual mushg‘ulotdir»³. Bu «individual mashg‘ulot» jamiyatning siyosiy-mafkuraviy sohasiga xizmat qiladi. Dastavval publisistikaning asosiy funksiyasi sifatida tilning ta’sir etish (volyuntativ) xususiyati e’tirof etilardi. Lekin bugungi kunda biz axborotning ijtimoiy hayotdagи o‘rni naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganining guvohi bo‘lyapmiz. Zamonaviy publisistik uslubda tilning ikki teng huquqli vazifasi ko‘zga tashlanadi: axborot berish va ta’sir etish. Informasion janrlar axborot berish, tahliliy janrlar predmet yoki voqeа hodisani tahlil qilish, badiiy publisistika esa ko‘pincha ta’sir etish funksiyalarini bajaradi.

Bugun OAVning har bir turi jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega. Bugun bosma nashrlarning yoritish usuli internet nashrlardan tubdan farq qiladi. Kishilarning fikr-mulohazalarini o‘z sahifalarida hech bir moneliksiz bildirishlari uchun erkin minbarlardan hisoblanadi. Jurnalist o‘zi ixtisoslashgan yo‘nalishdan kelib chiqqan holda barkamol avlodni kamol toptirishga doir chora-tadbirlarning mazmun va mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishning samarali usullarini tanlash bugunning talabiga aylanib ulgurdi. mahorat maktablarining yosh jurnalistlarni, talaba-jurnalistlarni ma’lum sohaga ixtisoslashtirishda ahamiyati katta. Buni nashrlar qoshida yangi mahorat maktablarining ish boshlayotganida ham ko‘rishimiz mumkin. Mahorat maktablarida tahsil olgan talaba-jurnalist tajribali jurnalistlardan sohaga ixtisoslashish borasida bilim oladi.

² mzh.mgimo.ru

³ Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 25.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://premiagi.ru/initiative/733>
2. mzh.mgimo.ru
3. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 25.
4. Guzalkhan M. CREATIVE PERSON AND THE HARD WORK OF CREATIVITY //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 239- 240.
5. Barziyev, O, H. (2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. Scientific journal of Fergana State University 3 (3), 108-114
6. Barziyev, O, H. (2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ 3 (3), 108-114
7. ОТАЖОНОВА, М. (2017). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В УЗБЕКСКИХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.
8. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). О ‘ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
9. Мухитдинова, М., & Эшмаматова, М. (2021). Мировая Культура, Неповторимая Литература В Памяти Великого Поэта Мухаммада Аминхужа Мукими. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(4), 71-73.
10. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. Specialusis Ugdymas, 1(43), 10577-10582.
11. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). KORPUS LINGVISTIKASIDA TARJIMASHUNOSLIK MASALASI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).